QIZIQARLI GEOGRAFIYA

Geografiya fani oyligining qiziqarli va mazmunli o`tishi, pedagog xodimlarning mashg`ulotlarda qanday manbalardan foydalanishi, yangicha uslublar asosida uni o`quvchilarga yetkazib berishga ham bog`liq.

- Ibn Sino hazratlari “Tibbiy o`gitlar” kitobida faslga ta`rif berib, aynan 1 faslni ta`kidlab shunday deganlar: “Bu davrda sog`lom kishilar kamdan – kam kasal bo`ladilar boshqa fasllardan farqi esa insonlar harakatida jo`shqinlik va shitob sezilib turadi. Bu qaysi fasl?” (Qish).

- Uchadi jim, qo`nadi jim, yotadi jim. Qachon o`lsa, keyin yig`laydi, uzun-uzun yig`laydi. Bu nima? (Qor).

- Xitoyning eng janubida Yunnan viloyati bor. Bu yerda qiziq holat kuzatiladi. 15-iyundan 15 sentabrgacha (90 kun) dalalarda ishlar to`xtaydi, to`yubayramlar barham topadi. Hamma o`z uyiga kirib, kitob o`qiydi. Hayot to`xtaganday bo`lib qoladi. Nima uchun? (Har kuni kuchli yomg`ir yog`ib turadi).

- Undan hamma noliydi. Ko`payib ketsa ham bir balo, kamayib ketsa ham bir bal;o. ko`pincha undan nolib-nolib, bu Xudoning marhamati ekanligi yodimizga tushadi. Unga yerning hohlagan mintaqasida duch kelamiz. Xo`sh bu nima? (Ob-havo).

- Nima uchun Shimoliy Qutbga nisbatan Janubiy Qutb sovuq< (Janubiy Qutb – materik. U dengiz sathidan o`rtacha 2000 metr baland).

- Italyada Yozafberg degan qishloq bor. Har yili 30 noyabrdan 2 fevralgacha qishloqda umuman quyosh chiqmaydi. Sabab nima? (Tog`lar quyoshni to`sib qo`yganligi uchun 91 kun qishloq qorong`u tun qo`ynida bo`ladi).

- Odatda dayrolarning suvi chuchuk bo`ladi. Rossiyaning shimoliy qismidan oqib o`tuvchi Solyanka daryosi sho`rligi bilan ajralib turadi. Buning sababi nimada? (Mazkur daryo yer osti suvidan to`yinib, tuz konidan boshlanishi tufayli).

- Biz uni ko`rib quvonamiz, eshitib zavqlanamiz, his qilganimizda rohatlanamiz. Leonardo da Vinchi bekorga uni “Hayot sharbati” deb atamagan. Bu nima? (Suv).

- Dengiz ham emas, yer ham emas, yurib ham bo`lmaydi, suzib ham bo`lmaydi? (Botqoqlik).

- Sayyohlardan biri bu davlatni shunday ta`riflaydi: Monax ayollar va ruhoniylar, pochtalyonlar va xizmatchilar, yoshlar va o`smirlar, uy bekalarining barchasi velosiped minib yuradi. Bu mamlakat aholisiga nisbatan “Velosiped bilan tug`ilgan” degan ibora ham ishlatiladi. Ushbu mamalakat nomini bilasizmi? (Gollandiya).

- Alsmeriy shahrida dunyodagi eng katta gul bozori bor. Bu bozor binosining sathi 30 ta futbol maydonining sathiga teng bo`lib, unda yiliga 1 mlrd.dan ortiq atirgul sotiladi. Shu joydan turli mamlakatlarga gul eksport qilinadi. Bu qaysi mamlakat bo`lishi mumkin? (Niderlandiya).

- Har bir shaharning nomi nimanidir anglatadi. Masalan, Nyu-york – “yangi gul” degan ma`noni bildiradi. Lotin Amerikasidagi bir davlatning poytaxti “Tog`larni ko`ryapman” degan ma`noni bildiradi. Bu poytaxtning nomini bilasizmi? (Montevideo).

- U davlatning juda katta yuk tashishga ixtisoslashgan dengiz floti mavjud. Bu davlatning minglab, yuz minglab yuk tashish kemalari o`z davlatiga yillab kirmay yuradi. Chunki ular dunyodagi boshqa davlatlar yuklarini tashish bilan band bo`ladilar.

“Dengiz kirakashi” deb nom olgan mazkur davlatning nomini ayting? (Norvegiya).

- Tabiatning ishi qiziq. Har bir ko`karib turgan o`simlik, darxt, albatta, suv bilan tirik. Ammo shunday bir o`simliki borki, 40 yil quritib, yana qayta ekilib, suv qo`yilsa, ko`karar ekan. Bu qaysi o`simlik bo`lishi mumkin? (Ajriq).